

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“Kimyo-texnologiya” fakulteti

“Kimyoviy-texnologiya” kafedrası

Himoyaga ruxsat etildi

Fakultet dekani dots.

_____ **A.Mamaxanov**

“ _____ ” _____ 2017-yil.

5320800-“Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi” ta'lim yo'nalishi
bitiruvchisi

Tursunov Elyorbek Abdurabilovichning

“Uychi tuman sharoitida kichik bosmaxona loyihasini yaratish”
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi: _____ E.A.Tursunov

(imzo)

Ilmiy rahbar _____ dots. A.K.Bulanov

(imzo)

Kafedra mudiri _____ t.f.n. dots. D.Sh. Sherqo'ziyev

(imzo)

Namangan-2017

MUNDARIJA

1	KIRISH.....	3
2	TEXNOLOGIYA QISMI.....	5
3	Kichik bosmaxonalarda raqamli bosmaning afzalliklari.....	10
4	USKUNALARNI TANLASH.....	14
5	Mahsulot ishlab chiqarish texnologik sxemasi.....	44
6	TEXNOLOGIK XISOBLAR	45
7	Bitiruv malaka ishi vazifasi.....	45
8	Bosish uskunasining varaq nusxa progoni.....	46
9	Bosish uskunasining yillik bosma qoliplar soni.....	46
10	Nashrlarni ishlab chiqarish mehnat sarfini hisoblash.....	47
11	KERAKLI USKUNALAR SONINI HISOBLASH.....	54
12	ISHCHILAR SONINI XISOBLASH.....	57
13	SARFLANADIGAN MATERIALLAR MIQDORINI HISOBLASH.....	58
14	ISHLAB CHIQARISH MAYDONINI HISOBLASH.....	59
15	IQTISODIY QISM.....	60
16	MEXNAT MUXOFAZASI VA EKOLOGIYA.....	74
17	XULOSA.....	76
18	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	77

KIRISH

Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisi kun tartibiga kiritilgan asosiy masala – O‘zbekistonning o‘tgan 2015 yildagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yakunlarini muhokama qilish va 2016 yil uchun taraqqiyot yo‘lining eng muhim ustuvor yo‘nalishlarini aniqlab olishdan iborat.

Ta’kidlash joizki, taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida faqat uglevodorod xomashyosi, qimmatbaho va rangli metallar, uran xomashyosini qazib oladigan va qayta ishlaydigan korxonalarni, shuningdek, tabiiy monopoliyalarning strategik infratuzilma tarmoqlarini – temir va avtomobil yo‘llari, aviatashuvlar, elektr energiya ishlab chiqarish, elektr va kommunal tarmoqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat boshqaruvida saqlab qolish maqsadga muvofiq, deb topildi.

Davlat aktivlarini xususiylashtirish, avvalo, chet ellik investorlarga sotish vazifalari qo‘yildi va buning uchun tegishli sharoitlar yaratildi. Masalan, 506 ta mulk kompleksi tanlov asosida, investitsiya kiritish sharti bilan «nol» qiymatida yangi mulkdorlarga sotildi. Bu borada ana shu investorlar qariyb 1 trillion so‘m va 40 million AQSH dollari miqdorida investitsiyakiritish, shuningdek, 22 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratish majburiyatini olganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, 245 ta kam rentabelli va faoliyat ko‘rsatmayotgan tashkilot to‘liq tugatildi.

Xususiylashtirish dasturida ko‘zda tutilgan, foydalanilmayotgan va qurilishi tugallanmagan 353 ta davlat mulki ob’ekti buzilib, buning natijasida 120 gektar hajmidagi er maydoni bo‘shadi. Bu erlarning qariyb 80 gektari ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish va xizmatlar ko‘rsatish ob’ektlari qurish uchun tadbirkorlar tasarrufiga berildi.

Davlat mulki shaklidagi yana 319 ta ana shunday ob’ekt inventarizatsiya qilinib, xususiy mulk shakliga o‘tkazish uchun savdoga qo‘yildi va o‘tgan yili ularning 102 tasi yangi mulkdorlarga sotildi. Bundan tashqari, 378 ta aksiyadorlik jamiyatining davlat ulushi baholandi va chet ellik strategik investorlarga sotish uchun ochiq savdoga qo‘yildi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, izchil rivojlanayotgan va muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan «Navoiyazot», «Farg‘onaazot», «Urganch ekskavator», «Qizilqumsement», «Jizzax akkumulyator zavodi» aksiyadorlik jamiyatlari kabi korxonalar, «Aloqabank», «Turonbank» singari banklar, «O‘zagrosug‘urta» kompaniyasi va boshqa muassasalardagi davlatga tegishli aksiyalar ham savdoga qo‘yildi.

Shu tariqa 52 ta aksiyadorlik jamiyatidagi savdoga qo‘yilgan davlat ulushi xususiy mulkdorlarga sotildi. Jumladan, «Qo‘qon yog‘-moy zavodi» aksiyadorlik jamiyatining davlatga tegishli aksiyalari 2 million 500 ming dollarga sotildi.

Bularning barchasi mamlakatimizda mulkchilik shaklini tubdan o'zgartirish bo'yicha olib borilayotgan keng miqyosdagi ishlarning faqat boshlanishidir.

Shuni ham ta'kidlashimiz zarurki, mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borayotgan ishlarimiz xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytinglarida o'zining ijobiy ifodasini topmoqda. O'tgan yilning oktyabr oyida Jahon banki «Biznes yuritish» reytingini e'lon qildi. Ana shu reytingda O'zbekiston faqat bir yilning o'zida 16 pog'onaga ko'tarilib, 87-o'rinni egalladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, «yangi biznesni qo'llab-quvvatlash» deb ataladigan mezon bo'yicha mamlakatimiz ayni paytda jahonda 42-o'rinni, tuzilgan shartnomalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 32-o'rinni, iqtisodiy nochor korxonalarga nisbatan qo'llanadigan bankrotlik tizimining samaradorligi bo'yicha 75-o'rinni egallab turibdi. «Kichik biznes sub'ektlariga kredit berish» deb nomlanadigan ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston so'nggi uch yilda 154-o'rindan 42-o'ringa ko'tarildi va o'tgan yilning o'zida reytingini 63 pozitsiyaga yaxshiladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq.

2015 yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi. Bu 2014 yilga nisbatan 9,5 foiz ko'p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalaridir.

Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa 2015 yilda umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi.

2015 yilda amalga oshirgan keng ko'lamli, uzoqni ko'zlagan islohotlarni hayotga tatbiq etish erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferensiyalar yo'lini ochib berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish va joriy etish iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlash bo'yicha o'z ijobiy ta'sirini berdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

TEXNOLOGIYA QISMI

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish yo'lidan bormoqda. Bu esa sanoatning turli sohalariga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Matbaa sanoati ham bundan istisno emas. Hozirgi kunda bosma mahsulotlariga, ayniqsa reklama mahsulotlariga ehtiyoj katta. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa matbaadagi reklama oldiga bir qancha vazifalarni qo'ygan, masalan: iqtisodiy samaradorlik, ko'p mahsulot turi, kichik hajmdagi adad, sifat, oq-qora o'rniga ko'p rangli mahsulotlarni ishab chiqarish imkonini, buyurtmani tezkorlik bilan chop etish. Bunday xollarda 5000 nusxali buyurtma uchun bosmaxonalarga murojaat qilish shart emas.

Hozirgi kunda O'zbekistonda yuqoridagi shartlarga to'liq javob bera oladigan kichik korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, lekin hamma kichik korxonalarda ham zamonaviy bosish uskunalar bilan jizohlanmagan.

Bugunda "tezkor raqamli bosish" iborasi ostida purkashli va termosublimatsiyali yoki vaqtincha bosish qolipini vazifasini o'taydigan materiallar ishlatiladigan uslublar, ya'ni *elektrografiya*, *ionografiya* va *magnitografiya* kabilar tushuniladi.

Nima uchun tezkor raqamli bosish uskunalaridan foydalanish hozirgi kunda ommabop hisoblanib kelmoqda? Bu birinchi navbatda matbaa sanoati tezkor ravishda rivojlanib borayotgan sababi bo'lmoqda. Tijorat ishlari borgan sari tor yo'nalishda olib borilayotganligi adalarni keskin qisqarishiga olib kelmoqda. Biroq an'anaviy texnologiya ham borgan sari takomillashib ko'p rangda, lak bo'yog'ini surtish imkoniyatlariga ega bo'lib bormoqda. Adadlar kamayganligiga javoban uskunalar konstruktorlari maxsus turdagi uskunalarini ixtiro qilmoqda. Bu uskunalar kam adadli buyurtmalarni tez chop etish maqsadida bo'yoqlarni avtomatik tarzda etkazib beradigan va bosma qoliplarni almashtirish ishlarini osonlashtiradigan qurilmalar bilan jihozlangan bo'lib ularning hammasi uskunani tezroq ishlashiga olib keladi. Hozirgi kunda shunday buyurtmalar borki ularda tijorat taklifi maxsus guruh odamlari uchun ishlab chiqarilib undagi ba'zi axborotlar bosish jarayonidan bir necha marotaba o'zgaradi. An'anaviy bosish uskunolari bunday imkoniyatga ega emas. Buning uchun uskunani maxsus qurilma bilan jihozlash kerak.

Raqamli bosish texnologiyasi ko'pincha "**kontaktsiz bosish**" iborasi bilan xarakterlanadi. Bunday turdagi barcha bosish uskunalarining umumiy jihati ularning barchasida har bir nusxalarni bosish uchun yangi bosish qolipi tayyorlandi. Bunday texnologiyani ko'pincha "**dinamik**" raqamli bosish deb tushuniladi, chunki bunday uskunalar kam adadli buyurtmalarni bosishda boshqa turdagi uskunalariga raqobatdosh xisoblanadi. Ya'ni bosma qolipni tayyorlash,

tabiiyki bir muncha vaqtni oladi, hattoki agar bosish vaqtida ham betlar chiqarilishiga tayyorlansa ham.

Termosublimatsion texnologiyalar ham raqamli bosishga kiradi, ishlab chiqarish quvvati pastligi sababli ularning ishlatilishi chegaralangan. **“Statik”** raqamli bosish haqida gap ketganda ko`pincha bosish uskunasi bosma qolip tayyorlanadigan texnologiyalar tushuniladi.

“Dinamik” turidan farqli ravishda bu turda bir nusxadan boshqa nusxaga o`tish jarayonida yangi qolip tayyorlanmaydi.

Tezkor matbaa oddiy muassasa, ofis sharoitlarida sifatli matbaa mahsulotlarini ko`p nusxada tez olishni ta`minlaydi. Tezkor matbaani XX asr ikkinchi yarmining anchagina katta yutug`i deb hisoblash mumkin, negaki u jamiyatga kuchli ta`sir ko`rsatish vositasidir: bu reklama, tashviquotning muhim vositasidir, milliy madaniyat va ta`limni rivojlantirishning muhim omilidir. Matbaada ko`plab turli xil bosma usullari mavjud: yuqori, chuqur, trafaretli, gektoqrafik, ofset va b. Yuqori va chuqur bosma usullari — kitob va broshyuralarni ommaviy chop etishning eng takomillashgan usullaridir. Tezkor matbaada, odatda, tekis bosma qoliplaridan foydalaniladi.

Tezkor matbaa alohida ko`zga ko`ringan markaz hisoblanib, o`tgan asrning 60 yillarida AQSh da tarqalishni boshladi. Keyingi 30 yil ichida u o`zining o`zgarishlariga bardosh berdi va butun dunyo bo`ylab tarqaldi. Hozirgi kunda faqat AQSh da 30 000 ga yaqin tezkor matbaa korxonalari mavjud, misol uchun ulardan biri, "Makdonalds" restoranini butun dunyo bo`yicha o`zining filiallari mavjud. Shu yillarning asosiy o`zgarishlaridan biri, albatta, yangi texnika va texnologiyaning paydo bo`lishiga bog`liq. Ko`plab kichkina korxonalar, boshqa bosmaxonalarga nisbatan istiqboli judayam tezkor, kuzatishlarda matbaani yangi turi paydo bo`lib boshqa tarmoqlarni qisqarishiga sabab bo`lmoqda. Buning natijasida tezkorlik va sifatga ta`sir qila boshladi, nomenklatura ishlab chiqarish mahsuloti keng tarqaldi. Jahon bozorlarida asosiy savdo yo`nalishi tezkor matbaaning bosma salonlari hisoblanadi, u Print Shops deb nomlanadi. Ular hamma ishlarni, ya`ni, fotografiyadan tushirishdan boshlab, aslnusxalarni skanerlash va tayyor mahsulotni qayta ishlashgacha ishlarini bajaradi. Bundan tashqari tasvirni bosish va uni qiyin jarayonlarni ham bartaraf qila oladi. Harf terish usullari juda keng, vizitkalarni tayyorlash, blankalar, bloknotlar, konvertlarga chop etish, suviner mahsulotlari (avtoruchka, krujka va boshqalar), matolarga tasvir berish (maykalar, futbolkalar), katta hajmdagi chop etish, reklama shitalari va osiluvchi mahsulotlar, shtamplar tayyorlash, belgilar, aloqa xizmatlarini yetkazib berish, elektron xatlar va faks orqali yuboriladigan xatlar, nusxa ko`chiruvchi avtomatlarning arendasi, kompyuterlar shuningdek o`xshash mahsulotlarning sotuvi (matbaa mahsulotlari, kanstovarlar va orgtexnika elementlari), gazeta bosish, almashinuvchi jurnallar,

qattiq muqovali kitoblarni chop etish va hohlagan mahsulotingizni, uncha katta bo'lmagan adadda chop eta oladi. Bizning Respublikamizda "tezkor matbaa" mustaqillik yillaridan keyin jadallik bilan rivojlanib bordi. "Raqamli matbaa" va "katta matbaa" o'rtasidagi bog'liqlik - tayyor mahsulotning kamayish muddatiga biriktirilgan. Hech narsaga qaramasdan, bu bog'liqlikning ahamiyatligi, prinsipial yangilikning ko'payishi - mahsulotning turlari va uning adadiga bog'liqdir. Adad qancha ko'p bo'lsa, xar bitta nusxaning narxi shuncha kam. Chop etish uncha ko'p vaqt olmaydi, vaqtning ko'p qismi uni tayyorlash uchun ketadi.

Matbaa doirasida ishlovchi korxonalar tasnifi va ishlab chiqariladigan mahsulot turlari-ishlab chiqarish sohasi bo'lib, qisqa vaqt ichida kam adadli mahsulotlarni (adadi 5-10 ming nusxagacha) chop etishga mo'ljallangan.

Zamonaviy tezkor matbaada raqamli texnologiyadan keng foydalaniladi, u kam investisiyali bo'lib yuqori sifatga ega bo'lgan rangli bosish imkoniyatiga ega.

Tezkor bosishda asosan quyidagi mahsulotlar ishlab chiqariladi:

- korxona va muassasalarning hujjatlari va ichki materiallar (blankalar, formulyarlar,
- faqat tezkor bosishga asoslangan maxsus korxonalar va hujjatlashtirish markazlari; prays-listlar va h.k.;
- reklama-prezentatsion materiallar (reklama bukletlari, prospektlar, reklama varaqalari, taklifnomalar, vizitkalar, konvertlar, suvenir bosish mahsulotlari);
- kam addada bo'lgan yumshoq muqovali nashr muqovalari (kitob va jurnallar), bundan tashqari bir va bir necha sonli kitoblarni talab bo'yicha bosish.

Hozirgi kunda tezkor matbaaga asoslangan korxonalarning soni oshib bormoqda. Tezkor matbaaning mutaxassislari hozirgi vaqtda ko'payib ularning faoliyatiga bir qancha xususiyatlar kiradi:

- kam adadlar bilan ishlash (1 dan 5-10 ming nusxagacha)
- kam vaqt ichida buyurtmani bajarish (bir necha daqiqadan bir necha soatgacha);
- ishlab chiqariladigan mahsulotlarning har xilligi;
- ishlab bo'lgan siklning bajarilishi (bosishgacha bo'lgan jarayondan boshlab, broshyuralash-muqovalash va qadoqlash jarayonigacha);
- mehnatni talab qiladigan jarayonlarni avtomatlashtirish va texnologiyalarni qo'llash (raqamli bosish);
- yirik muassasalar va o'quv dargohlarida mavjud bo'lgan bosmaxonalar va tezkor bosish bo'limlari;
- yirik matbaa korxonalarning ichida mavjud bo'lgan tezkor matbaa bo'limlari;
- bitta buyurtmadan ikkinchi buyurtmada uskunalarni qayta sozlashga kam

vaqt va xarajat ketishi;

- katta bo'lmagan ishlab chiqarish hajmi, kompakt o'lchamlar va uskunaning joylashishi;

- shtat bo'yicha kam ishchi-xodim ishlashi va o'rnatilgan uskunalarda ishlash uchun yuqori ma'lumotga ega bo'lish kerak emas;

- ko'p joyni olmaydigan uskunalar.

Bundan tashqari, tezkor matbaa korxonasi boshqa mahsulotlarni ham yetkazib berish bilan shug'ullanadi: qog'oz sotish, suvenir mahsulotlarga bosish, misol uchun futbolkalarga trafaret bosma usuli yoki krujkalarga tamponli bosma usuli, avtoruchka va boshqalar.

Tezkor bosishda quyidagi uskunalardan keng foydalaniladi: printer, nusxa ko'chirish apparatlari, dublikator va bosish uskunasi. Hozirgi kunda tezkor bosish uchun har xil texnikalar ishlab chiqarilmoqda: kichik o'lchamdagi ofset bosish uskunalari, raqamli bosish uskunalari, raqamli nusxa ko'chirish apparatlari, dublikatorlar va printerlar.

Kichik bosmaxonalarning asosiy afzalliklari, uskunalarni ishlashi uchun katta zaxiraning mavjudligi, elektr quvvatdan kam foydalanishi, atrof muhitga chiqit chiqarmasligidir. Ofset turida ishlaydigan korxonalarga nisbatan kichik bosmaxonalarda bosma qolip tayyorlashga hech qanday harajat sarflanmaydi. Nusxa ko'chiruvchi uskunalarining eng katta yutug'i ularning turli qalinlik va turli sifatidagi, ya'ni arzon yupqa (46 g/m²) qog'ozdan tortib qalin (240g/m²) kartonda ham bosa olishidadir.

Bosma mahsulot sifatining talablari va rangdorligi to'liq bosma mahsuloti va ma'lumot xarakteri bilan bir-biriga bog'liq. **Masalan:** blanka yoki metodik o'quv materiallarini asosan bitta bo'yoqda bosishadi, va katta bo'lmagan bosma mahsulotining sifati uncha yuqori emas. Asosan reklama-prizentatsion mahsulotlarga to'liq bo'yoq va sifatli mahsulot chiqarish talab qilinadi. Bosma sexini tashkil etuvchi asos, albatta, bosma texnikasi hisoblanadi. Hisobga olib, ishga qabul qilinayotgan adadning boshlanishi 1 ta nusxadan bir necha ming nusxagacha bo'lishi mumkin, odatda bir qancha uskunalar ishlatiladi (printer, duplikator, kserokopiya va bosma mashinalari).

Tezkor bosmada – bu eng so'nggi mahsulotning kichik soni (adadi) ni chiqarish zaruriyati tug'ilgan hollarda, eng oqilona qarordir. Tezkor bosma – bu o'zgaruvchan bosma qolipdan foydalangan holda, bosilgan nusxalarni olish texnologiyasidir. O'z prinsipiga ko'ra, raqamli bosma printerda bajariladigan odatdagi bosmani eslatadi. Ikkala holda ham, elektron nusxadagi maket qog'ozga o'tkaziladi. Tezkor bosma an'anaviy ofset bosmadan bir qancha farqlanadi. Bosma mashinadagi o'zgarishlarni har bir bosqichda nashriyot tizimining kompyuteri boshqaradi. Texnologik jarayonda plyonka va qoliplardan foydalanilmagani

tufayli, nafaqat bosma bahosi, balki bosmaning turli bosqichlarida sifatni yo`qotish xavfi sezilarli kamayadi. Tezkor bosmadan, adadi kichik reklama yoki tijorat nashrlarini (masalan, tashrifnomalarni) chiqarishda foydalanishadi. Bu mahsulotlarga esa, adadni tayyorlash jarayonida hatto har bir nusxa bosib bo`lingach ham, o`zgartirishlar kiritish mumkin.

Kichik bosmaxonalarning afzalliklari

Bosish tezligi. Tezkor bosmani tezkor ofset bosma deb bemaolol aytishimiz mumkin. Masalan, tashrifnomalarni tezkor raqamli bosmadan chiqarish uchun buyurtmani tayyorlab berish muddati bir necha soatni tashkil etadi. Sifatli rangli bosma mahsulot ishlab chiqarishning eng tezkor usuli hisoblanadi. Raqamli bosmaning matbaa mahsulotlarini ishlab chiqarishning boshqa turlaridan afzalligi – buyurtmani joylashtirish va tayyor mahsulot olish oralig`ida juda kam vaqt o`tishidir. Raqamli bosma bevosita ishlab chiqarish oldidan maketning asl nusxasini tuzatish va kelishtirishga imkon beradi. Tayyor mahsulot tayyorlashning qisqa muddatlari esa, adadni bosmaga tayyorlash uchun kam vaqt talab etadi.

Sifat. Bu eng muhim ustunlik hisoblanadi! Raqamli bosma, ofset bosmaga xos bo`lgan salbiy omillarga (masalan, bo`yoqlarning ustma-ust tushmasligi, qachonki bo`yoq bir-birining ostida yuzaga chiqib qoladi, yoki, turli ranglilik, qachonki nusxalarning rangi bir-biridan farq qiladi, yoki, bo`yoqning bir nusxadan boshqasiga chaplanib o`tishiga yo`l qo`ymaydi. Asosiysi, raqamli bosmada inson bosmaxona mutaxassisi) ning bosma jarayonida ishtiroki bartaraf etilgan, bu esa ofset va boshqa bosma turlarida bo`lganidek, inson omili yakuniy natijaga ta'sir etishiga yo`l qo`ymaydi. Tezkor bosmaning barcha jarayonlarini kompyuter boshqaradi, bu esa, reklama mahsulotini tayyorlash chog`ida noaniqliklar vujudga kelgan holatlarda, istalgan lahzada bosma jarayoniga tezkor aralashish imkonini beradi. Shu tariqa, tuzatishlar yo`li bilan bosmaning yuqori sifatiga erishiladi. Bosma texnologiyasi bo`yicha tayyorlangan mahsulot doim qo`yilgan fon tasvirlari (plashkalar) ning yuqori sifati bilan ajralib turadi, adaddagi barcha mahsulotning ranglari bir xil va bir-biridan farqlanmaydi. Tabiiy ob'ektlar yoki san'at asarlarining professional fotosuratlarini o`z ichiga olgan fayllarni bosish chog`ida raqamli bosmaning sifati ayniqsa ko`zga tashlanadi.

*Kam sonli adad bosilgan chog`larda bahoning pastligi.* Raqamli bosma tizimlari kam sonli adad bosilgan chog`larda ayniqsa samara beradi, chunki kam adadni ofset qurilmasida bosish iqtisodiy va texnik tomonlardan qiyindir. Tezkor bosmaning yana bir afzalligi – kichik adadlar bosmasining ofset bosmaga nisbatan arzon narxidir. Kichik adadlardagi mahsulotni bosish kerak bo`lganda, faqat

raqamli bosma texnologiyasi sizga eng yaxshi bahoni taklif eta oladi. Raqamli bosma uchun bosmaoldi tayyorgarlik, bosma qoliplar va plyonkalarni tayyorlash kerak emas. Shu orqali raqamli usul yordamida bosma jarayoni arzon bo'ladi va bosmaoldi tayyorgarlik jarayonida tasvirning sifatini yo'qotish xavfi kamayadi.

O'zgaruvchi ma'lumotlarni bosish. Tezkor bosma mashinasi nafaqat ism-sharif, manzilni, balki raqam, sana, xullas, istalgan o'zgaruvchi ma'lumotlarni bosish imkoniyatiga ega. Bu raqamli bosmaning boshqa turdagi bosmalardan muhim tafovutidir.

Tasvirning yuqori imkonlilik qobiliyati. Raqamli bosma texnologiyasi 2400 dpi imkonlilik qobiliyatiga ega bo'lgan tasvirlarni olishga imkon beradi, bu esa mayda detallarni yuqori aniqlikda aks ettirishni ta'minlaydi, sifati esa ofset bosmanikidan qolishmaydi.

Fotosuratlar bosish. Yakuniy nusxaning yuqori imkonlilik qobiliyati buyurtmachining materialidagi fotosuratlarni bosish imkonini yaratadi. Raqamli bosma mashinasining funksional imkoniyatlari bosma jarayonida buyurtmachining istaklarini inobatga olib, tasvirning rangini tuzatishga imkon beradi.

Sinov nusxasini yaratish. Nusxalarni ko'paytirish jarayonini boshlashdan oldin, tayyor mahsulot qanday chiqishini bir ko'zdan kechirib qo'yish yomon bo'lmasdi. Ofset usulidan farqli o'laroq, raqamli bosma bu ishni qilishga imkon beradi. Raqamli bosma chog'ida bosishdan oldingi tayyorlov talab etilmaydi, bu esa tayyorgarlik va bosish jarayonlarini tezlashtiradi. Agar adadni bosishdan oldin bosma namunasini ko'rmoqchi bo'lsangiz – muammosiz! Raqamli bosma adad sifatiga ega bo'lgan «rang namunasi»ni bir zumda olish imkoniyatini taqdim etadi.

Personallashtirish. Raqamli bosma, ma'lumotlarni personallashtirish va raqamlab chiqishga imkon beradi. Ofset bosma usulida esa bunday qilib bo'lmaydi. Tezkor bosmaning noyob imkoniyati Masalan, turli ism-shariflar yozilgan 100 ta taklifnomani bosish kerak, deylik. Ofset bosmada avval taklifnomalar blanklari bosiladi, so'ng esa qo'lda yoki printerda taklif etilganlarning ism-shariflari yozilib bosiladi, ya'ni tayyor mahsulotni ikki bosqichda olamiz. Raqamli bosmada taklifnoma blanki va ism-sharifni bir-varakayiga bir progonda bosamiz! Vaqtning tejalayotgani ko'rinib turibdi, asosiysi esa – qo'l mehnatiga hojat yo'q! Hammasi avtomatlashtirilgan.

Darhol rangni tuzatish. Raqamli bosmaning yana bir ustunligi shundaki, xatto namuna varag'ini yaratgandan keyin ham bosma mahsulot maketiga tuzatishlar kiritish mumkin. Buning ustiga, raqamli bosma birlamchi maketga tuzatishlar kiritish osonligi tufayli, har bir nusxani betakror qilishga imkon beradi. Yakunida aytilishni istardikki, ishlar hajmidan qat'iy nazar, raqamli bosma qisqa muddatlarda kafolatlangan sifatni ta'minlaydi.

Bosmadan keyin qayta ishlash. Tezkor bosmada tayyorlangan mahsulot ofset bosmadagi kabi quritishga muhtoj emas, ya'ni, darhol bosmadan so'ng qayta ishlash uchun tayyor. Bu afzallik ishlab chiqarish siklini qisqartiradi, shuningdek, bosma boshlanishidan keyin bir necha daqiqa o'tgan zahoti bosmadan keyin qayta ishlashni talab etuvchi mahsulotning nazorat namunasini olishga imkon beradi.

Barcha afzalliklariga qaramay, raqamli bosma bir qator kamchiliklarga ham ega. U sifat va tonerlar assortimenti borasida cheklanishlarga ega. Ko'p sonli rangli adadni bosish chog'ida buyurtmani tayyorlash muddati juda cho'zilishi, baho esa ko'tarilib ketishi mumkin. Matbaa mahsulotlari nusxasining bahosi ko'p jihatdan bosmaxona xizmatlari qiymatiga ko'ra aniqlanadi. Tezkor matbaa sohasida ixtisoslashgan har bir kompaniyada o'z prays-listi, o'z bahosi bor. Bunga fayli bosish uchun tayyorlash xarajatlari, bosma jarayonining bahosi kiradi, ko'pincha bularning barchasiga muqova qiymati ham qo'shiladi. Mabodo maket bo'lmasa, u holda bahoga dizayner-sahifalovchi xizmatlari uchun to'lanadigan haq qo'shiladi. Bosma biznesda bir dona mahsulot bahosi ko'p jihatdan nashr adadiga bog'liq. Adad qanchalik ko'p bo'lsa, bir nusxaning bahosi shunchalik past bo'ladi. Bosish jarayonining o'zi kam vaqt oladi, bosmaga tayyorlanishga ancha ko'proq vaqt ketadi. Maketni tuzatish va tayyorlash, undagi ranglarni ajratish, har bir bo'yoq uchun foto chiqarma, bosma qoliplarni tayyorlash, rang sinovlari va mashinani sozlash esa, bosmadan oldin bajariladigan jarayonlarga kiradi. Ko'pchilik o'ylaydiki, agar adad katta bo'lsa, u holda tayyorlashdagi ba'zi bosqichlarning keragi bo'lmas emish. Ammo bu xato fikr – barcha bosqichlar o'ta zarurdir. Katta adad buyurtmachi uchun foydali, negaki bu holda sarflanadigan materiallar tejab qolinadi. Tezkor matbaa kam sonli adadni chop etgan vaqtda, qog'ozning bahosi deyarli ikki barobar oshib ketadi, chunki bosma oldi tayyorgarlikka sarflangan qog'ozning miqdori bir xil bo'lib qolaveradi, adad katta bo'lgan chog'larda esa, uning bahosi ko'p sonli nusxalarga taqsimlab chiqiladi.

Tezkor matbaada bosish tezligi ko'pchilikni jalb qiladi, biroq shuni hisobga olish kerakki, u bosmaning bahosiga ta'sir etadi. Tezkor matbaa yordamida adadni qanchalik tez olishni hohlayotgan bo'lsangiz, u shunchalik qimmatlashaveradi. Tezlikning bir to'g'anoq xususiyati bor – bosish tezligini oshiraversangiz, ko'p narsani yo'qotishingiz mumkin. Shunday bosmaxonalar borki, ular bosma tezligi va sifatini oqilona uyg'unlashtira olishgan. Ammo bunday bosmaxonalarni qanday topish buyurtmachining o'ziga bog'liq. Tezkor matbaa salonini tanlashda yanglishmaslik uchun, ushbu qoidalarga amal qilish lozim:

Tezkor bosma sizga kerakli bosma turini amalga oshiradimi-yo'qmi, u yerdagi ishlaydigan uskunalar bilan ham qiziqib ko'ring, negaki mahsulot sifati nafaqat bosish texnologiyasiga, balki uskunalar va boshqa bir qator omillarga ham bog'liqdir.

Sizga kerakli matbaa xizmati uchun bir necha tezkor bosma sexi belgilangan baholarni taqqoslang. Bu maslahatga amal qila turib, ancha pul tejashingiz mumkin. Ayniqsa, katta adad haqida gap ketayotgan bo'lsa, chiqarayotgan mahsulot namunalarini ko'rib chiqing. Ana o'shanda, sizga taklif etilayotgan xizmatning sifatini tasavvuringizdagi sifat bilan solishtira olasiz. Agar aytaylik, risolalarni sifatli bosish uchun buyurtma bergan bo'lsangiz, nafaqat risolalarni, balki kataloglar va jurnallarni ham ko'rib chiqing. doimiy mijozlari kim ekanligiga qiziqib ko'rish ham ortiqchalik qilmaydi. Ehtimol, ular uchun chop etilgan mahsulot qo'lingizga tushgan bo'lishi mumkin va siz uning sifatiga baho bergan bo'lishingiz mumkin. Balkim, tanlagan tezkor bosish sexi mijozlaridan bu tashkilot bilan hamkorlik tajribasi haqida so'rab ko'rish ham foydalidir. Tezkor bosish sexida buyurtmangizni bajarishi mumkin bo'lgan muddatlar haqida so'rang. Bu ayniqsa, sizga matbaa mahsuloti juda qisqa muddatlarda tayyor bo'lishi kerak bo'lganida juda muhim. Mashinalar ish bilan qay darajada yuklanganligi, buyurtmalarning ehtimolli navbati haqida bilib oling.

Albatta shartnoma tuzing. Unda ishiga qo'ygan talablaringizni, xizmatlar bahosi va hujjatda belgilangan bahoga kiradigan barcha narsalarni albatta yozib chiqing. Shu orqali mahsulot siz rejalagandek bo'lib chiqishini o'zingiz uchun kafolatlagan bo'lasiz. Shuniyam unutmaslik kerakki bugungi matbaa xizmatlari bozorida raqobat kuchli. Shuning uchun, buyurtmachini nimadir qanoatlantirmasa, o'z fikrlarini yoki da'voisini ham aytishi mumkin. Shundagina tanlangan bosmaxona sizga yon bosib, murosaga kelishga harakat qiladi.

USKUNALARNI TANLASH

Samsung SyncMaster 940NW



Xususiyatlari:

Tip: JK-monitor

Diagonal: 17"

Imkonlilik qobiliyati: 1280x1024 (5:4)

Suyuq kristalli matritsa tipi: TFT TN

Gorizontal bo'yicha nuqta qadami: 0.264 mm

Vertikal bo'yicha nuqta qadami: 0.264 mm

Yorqinligi: 300 kd/m²

Kontrast: 600:1

Javob berish vaqti: 8 ms

Ko'rish sohasi: gorizontal bo'yicha: 170°; vertikal bo'yicha: 170°

Ranglarning maksimal soni: 16.2 mln.

Razvyorka chastotasi: gorizontal: 30-83 kGs; vertikal: 56-75 Gs

Kirishlar: VGA (D-Sub)

Iste'mol qilinadigan quvvat: ishlash vaqtida: 40 Vt, kutish rejimida: 1 Vt, uxlash rejimida: 1 Vt

Standartlar: ekologik: MPR-II, TCO'03; Plug&Play: DDC 2B

O'lchamlari, vazni: 368x389x230 mm, 4.90 kg

CANON to'la rangli raqamli bosma tizimlari



Kichik bosma tizimlari — eng ommabop bosma uskuna. To'la rangli raqamli bosma tizimlari — kichik adadli tijorat mahsulotlarini tayyorlashda qo'llanadigan bosma uskunaning hozirgi damdagi eng maqbul turidir. Reklama bukletlari, kataloglar, tashrifnomalar, axborot varaqlari, taqvimlar, otkritkalar — ushbu ommabop matbaa mahsulotlarning istalgan turini bosish uchun tezkor va sifatli to'la rangli bosma talab etiladi. Bunda, zichligi va fakturasi turlicha qog'ozlarda bosish imkoniyati bilan bir qatorda, tezkorlik va sifat birichni o'ringa qo'yiladi. Axir mijoz uchun tijorat bosma mahsulotiga buyurtma tushganda, bosma uchun taqdim etilgan axborot tomonidan yakuniy iste'molchiga ko'rsatiladigan samara boshqa hollardagidan ham muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, tezkor to'la rangli bosma biznesining muhim xususiyati — sifatli va tez bajariladigan ishlarning eng keng doirasini mijozga taklif etish zaruriyatidir. Bu esa mazkur biznesning matbaa va reklama mahsulotlarini tayyorlash bilan bog'liq barcha masalalarni hal etish bo'yicha agar yagona demasak, har holda eng tezkor va barcha tomonlama qulay markazga aylanishi uchun imkon yaratadi. Darhaqiqat tezkor, chunki bu holda Sizning

buyurtmachingiz har bir yangi ish turini bajarish uchun pudratchini izlab vaqt yo‘qotmaydi. Rangli tezkor bosma bilan shug‘ullanuvchi eng muvaffaqiyatli korxonalar aynan shu tamoyilga asoslanib ishlaydi.

Bosmaxonalarni jihozlash uchun Canon bosma tizimlari

"OFISNAYA POLIGRAFIYA" firmalar guruhi **Canon** firmasining eng zamonaviy funksional raqamli bosma tizimlarini taqdim etadi. Bu firma birinchi bo‘lib raqamli rangli bosma va nusxa ko‘chirish tizimlarini yaratgan va ishlab chiqarmoqda. **Canon** firmasi raqamli mashinalarining farqlovchi jihati – mazkur sinf uskunolari orasida, ham qalinlik va faktura, ham zichlik va tayyorlangan material bo‘yicha bosiladigan varaqlarning turli tiplari bilan ishlash borasida eng keng imkoniyatlarga ega. Uning aynan universalligi, bosmaning eng yaxshi sifati va bosilgan mahsulotning bosishdan keyingi qayta ishlashning istalgan turlari va reklama mahsulotini tayyorlashning ko‘pgina texnologiyalari bilan a‘lo mos keluvchanligi, istalgan maketni bosmaga tez va sifatli chiqarish imkoniyati bilan bir qatorda, **Canon r bosma tizimlarini** bosmaxonalar va tezkor bosma salonlarini jihozlash uchun eng yaxshi echimga aylantiradi.

Canon kompaniyasi — mashinalarning eng xizmat ko‘rsatgan etkazib beruvchisi. 1981 yilda birinchi rangli nusxa ko‘chirish uskunasi – **CLC 1** ni ishlab chiqargach, Canon kompaniyasi rangli raqamli nusxa ko‘chirish texnologiyalari kashshofiga aylandi. Bugun butun dunyo bo‘ylab **Canon** guruhi 110 ming kishi ishlaydigan uch yuzdan ortiq kompaniyani birlashtiradi. Bosh ofisi Tokioda joylashgan. So‘nggi vaqtda Canon rangli nusxa ko‘chirish texnikasi bozorining uchdan ikki qismini egalladi.

CANON iRC4580i Tezkor bosma bozori uchun eng maqbul echim — Canon CLC mashinalaridir. Canon firmasi chiqarayotgan uskunalarining ulkan doirasi orasida, **to‘la rangli bosma tizimlarini** ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular yuqori sifatli kichik adadli mahsulotni tezkor ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan: bu **CLC 5151/4040** va **iRC 5180i/4580i/4080i**. Bu modellar asosan unumdorligi, bosma sifati va shuning natijasida, bahosi blina ajralib turadi. Model nomidagi CLC qisqartmasi Color Laser Copier deb o‘qiladi (lazerli razvyortka blokiga ega bo‘lgan bosish va nusxa ko‘chirish rangli qurilmasi). U rang tasvirlash va tasvirni boshqarish bo‘yicha eng katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan modellarni belgilash uchun xizmat qiladi. Bu modellar bosilgan nusxalarning eng yuqori sifatini ta‘minlaydi, bu esa ularni tezkor bosma bozori uchun tavsiya etishga imkon beradi.

Canon iRC ko‘p funksiyali tizimlari iR C (imageRunner Color) bosmaxonalarda, tezkor matbaa korxonalarida, bosma va nusxa ko‘chirish

salonlarida ishlatish uchun mo'ljallangan. Minutiga 51 ga qadar rangli nusxa bosish tezligiga ega bo'lgan bu uskunalar 300 g/m² gacha zichlikdagi materiallarning keng doirasida bosishga imkon berib, boshlang'ich biznes uchun maqbul variant hisoblanadi.

Canon bosma tizimlari konfiguratsiyasini tanlash bo'yicha keng imkoniyatlar Noyob konstruksiyasi va modulli tuzilishi tufayli, **Canon** raqamli bosma tizimlari foydalanuvchining vazifalariga mos tarzda konfiguratsiyalanishi mumkin. Bunda ular foydalanuvchining istalgan xohishini amalga oshirish chog'ida baho/imkoniyatlarning maqbul nisbatini saqlab qoladi. **Canon** raqamli bosma tizimlarining turli modellarini quyidagi asosiy konfiguratsiyalarda xarid qilishingiz mumkin:

- to'la rangli nusxa ko'chirish uskunasi
- to'la rangli yuqori unumli printer
- tizim bosish, nusxa ko'chirish va skanerlash imkoniyatlarini o'z ichiga oladi

Asosiy konfiguratsiyaga qo'shimcha tarzda tizimdan foydalanish bo'yicha yangi imkoniyatlar qo'shuvchi modullar bilan jihozlanishi mumkin, ular bajariladigan ishlarning unumdorligi va sifatini oshiradi. Qo'shimcha komplektatsiya uchun quyidagi qurilmalarni o'rnatish mumkin:

- 64 — 209 g/m² zichlikdagi A3 bichimli 2700 varaq uchun Y1 yon ustuni
- oddiy E1 ustuni (pedestal)
- har biri 550 varaqli ikkita qo'shimcha Z1 pastki kassetalari;
- saralash va biriktirish funksiyalariga ega bo'lgan X1 yakuniy qayta ishlash moduli (1000 varaq A3)
- saralash va biriktirish funksiyalariga ega bo'lgan W1 yakuniy qayta ishlash moduli (4000 varaq A3)
- saralash, biriktirish va broshyuralash funksiyalariga ega bo'lgan W2 yakuniy qayta ishlash moduli (4000 varaq A3 va broshyuralar)
- AF1 perforatsiya moduli
- kirishni cheklash kartalarini o'qish qurilmasi
- ovoz buyruqlarini boshqarish qurilmasi (English Only)

Canon bosma tizimlarining ajoyib imkoniyatlari va ilg'or texnologiyalari. **Canon to'la rangli raqamli bosma tizimlari** — bu rangli kichik adadli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ilg'or echim bo'lib, rangli tasvirlarni qayta ishlash va chiqarishning eng zamonaviy texnologiyalari asosida yaratilgan. Biz taqdim etayotgan **Canon** mashinalarining barcha modellari ish uchun muhim bo'lgan bir qator ustunliklarga ega:

- to'rtta alohida fotobarabanga va tasvir o'tkazuvchi oraliq qayishga ega bo'lgan bosma mexanizmi
- yangi lazerli razvyortka bloki, u 1200x1200 dpi, 8 bit hajmida yuqori imkonlilik qobiliyatini ta'minlaydi
- qog'oz o'tishining to'g'ri trakti 259 g/m² gacha va undan yuqori zichlikdagi materiallardan foydalanishga imkon beradi
- yuqori bosma tezligi — minutiga 51 (**CLC5151** uchun) va 40 (CLC4040 uchun) dona rangli yoki oq-qora nusxa
- yangi moysiz tasvirni mustahkamlovchi modul, u materiallarning eng keng doirasida bosmaning yuqori tezligi va sifatini ta'minlaydi
- material uzatish tizimining maksimal sig'imi — A3 bichimli 5000 varaq
- qabul qiluvchi lotoklarning maksimal sig'imi – A3 bichimli 4000 varaq
- tezkor skanerlash moduli (minutiga 70 betgacha)
- mahsulotni liniyada yakuniy qayta ishlash bo'yicha keng imkoniyatlar
- bosilgan nusxaning jilosiz ko'rinishi, xuddi ofsetnikiga o'xshab
- o'tkazish qayishini avtomatik rostlash
- toner zichligini avtomatik tuzatish
- uskunaning modulli konstruksiyasi, u qurilmaning zarur konfiguratsiyasini tuzishga va zarur hollarda uning imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi
- **EFI imagePASS H1 va EFI ColorPASS GX100** rusumli yuqori unumli ko'p funksiyali bosma kontrollerlari
- **e-Maintenance** masofaviy servis boshqaruvi tizimiga ulanishni ta'minlovchi o'rnatilgan modul
- skanerlangan hujjatlarni elektron pochta orqali yuborish uchun iSend funksiyasi ta'minlangan

Canon to'la rangli bosma tizimlari — bu tasvirning eng yuqori sifati, yuqori unumdorlik va ajoyib funktsionallik. Bu ajoyib mashinalar istalgan professional va rangli bosma uchun yuqori unumdorlik va eng yaxshi echim kerak bo'lgan barcha uchun yaqqol tanlovdir.

Canon bosma tizimlarining texnik xususiyatlari	
Xususiyatlar	Canon iRC 4080i/Canon iRC 4580i/Canon iRC 5180i
Bosma tezligi, minutiga A3 nusxalar soni	40 rangli, 45 oq-qora 36 rangli, 40 oq-qora 51 rangli, 40 oq-qora
Bosma imkonlilik qobiliyati, dpi	1200x1200 dpi
Rang, gradatsiyalar chuqurligi	256
Bosiladigan material zichligi, g/m ² :	64 - 259

qo'lda uzatiladigan lotokdan bosganda; o'rnatilgan avtomatik dupleksi bo'lgan orqa tomon bosilganda	64 - 253 64 - 209
Nusxaning maksimal bichimi	SRA3+ (320x457 mm)
Aslnusxaning maksimal bichimi	A3 (297x420 mm)
Maksimal bosiladigan yuza, mm	303x455
Qog'oz uchun uzatuvchi lotoklar sig'imi	Qo'lda uzatish lotogi, 100 varaq, 550 varaqdan ikkita kasseta. Opsiya sifatida 550 varaqli ikki kasseta, 2700 varaqli lotok mavjud (maksimal sig'im 5000 varaq)
Rangli/oq-qora bosmada birinchi nusxa olish vaqti (A4, 80 g/m2), s	9.5/6.8
Yoqishdan keyin qizish vaqti, min.	4
Tavsiya etiladigan oylik yuklanish, oyiga A3 (4+0) nusxalar Maksimal oylik yuklanish, oyiga A3 (4+0) nusxalar	40 000/100 000
Baraban resursi, A3 nusxalar	~ 60 000
Toner zaxirasi (5% to'ldirilganda), A4 nusxalar	~36 000 CM ranglari uchun ~27 000 qora rang uchun
Elektr manbai, V/A	230/6,2 (maksimum)
O'lchamlari (UxKxB), mm	850x620x762
Massa, kg	141

COMPUTER TO PLATE PLATINUM 2218 QURILMASI



CTP Platinum 2218 da ishlash oson va an'anaviy qolip plastinalar eksponerlashga juda mos. Preforirlangan qolip plastinasi shtiftlarga joylashtiriladi, keyin esa havorang lazer yordamida eksponerlanadi. Plastinaning max o'lchami 558x462 mm ni tashkil etadi. Bu bu holda buyurtmachi foydalaniladigan perforasiya sistemasini tanlaydi va buyurtma beradi. Plastinani o'rnatish va 2540 dpi imkonli qobiliyatda eksponerlash uchun atigi 3 daqiqa kifoya.

Platinum 2218 apparatida, Highwaterning barcha CTP ishlab chiqarish sanoatidagi kabi hamda ularni ixcham, qo'llanilishi oddiy va narxi judayam arzon bo'lgan planshetli prinsip qo'llaniladi. Bundan tashqari, havorang lazer texnologiyasini qo'llanilishi sariq rangdagi yoritilganlikda ham ishlashga imkon beradi, kunduzgi yorug'likka max yaqin holatdagi sharoitda ham.

Ishlab chiqarish dasturiy ta'minotni boshqarishdan foydalanish (Highwater Torrent RIP) nafaqat plastinaga to'g'ri-to'g'ri eksponerlash qurilmasini boshqarish, balki purkashli printerlardan va sublimatsiyon qurilishdagi plastinani uzluksiz eksponerlashdan oldin svetoproba olish imkoniyatini beradi.

PLATINUM 2218 Texnik tavsifnomasi

Modeli	PLATINUM 2218
Plastinaning maksimal o'lchami	558x462 mm
Eksponerlashning maksimal maydoni	558x462 mm
Lazer turi	havorang lazerli diod
Lazer to'liqligi uzunligi	400 nm
Tuzilish prinsipi bo'yicha	planshetli qurilma
Eksponerlashning imkonli qobiliyati	1270, 2540 dpi
Plastinani maksimal o'lchamda eksponerlash tezligi (1270 dpi)	115 sek
Plastinani maksimal o'lchamda eksponerlash tezligi (2540 dpi)	229 sek
Plastinani qotirish prinsipi	shtiftlar
Haridorning buyurtmasiga ko'ra qo'llaniladigan perforasiya	(miqdori chegaralanmagan)
Plastinani uzatish	Qo'lda
Ochiltirish protsessori	B qator
Interfeys	SCSI II
Rastrli protsessor	Highwater Torrent

Ochiltirish prossesori Inter Plater 66/88



Inter Plater 66/88 prossesorlari pozitiv va negativ shuningdek, ofset termal plastinalarni ochiltirish, yuvish va quritishga mo'ljallangan. Bunday turdagi arzon va ishonchli qurilmalar termal plastinalarni qayta ishlashda qo'llaniladi. Agar CTP texnologiyasi perspektivi haqida gap ketganda, universal hisoblangan Interplater HD va Quartz modellarini ko'rish taklif qilinadi.

Konstruktiv o'ziga xosliklari

Bir pultdan boshqarish va umumiy mikroprossessorlarni boshqarish quyidagi funksiyalarni bajarishga imkon beradi:

1. Plastina o'tayotganda boshqarish;
2. Plastinalar miqdorini hisobi;
3. Ochiltirish tezligini boshqarish;
4. Boshqarish va quritish va ochiltirishdagi temperatura imkoniyati;
5. Avtoto'ldirilish va ochiltirgich avtodoliv;

Texnik tavsifnomasi

Inter Plater 66/88	
Ochiltirish tezligi, m/min.	0,4-1,4
Shetkalar aylanish tezligi, ab/min	40-140
Materialning minimal kengligi, sm	10
Materialning maksimal kengligi, sm	66/88
Material uzunligi (min.), sm	33
Materialning minimal qalinligi, mm	0,1
Materialning maksimal qalinligi, mm	0,4
Ochiltirish uchun rezervuar hajmi, l	18/24
Ochiltirishning boshqaruvchi temperaturasi, °C	18-40
Quritishning boshqarish temperaturasi, °C	30-60
Qizish vaqti (maks.), min.	30
Ish davomida suv sarfi (maks.), l/min.	7
Elektroziqlanishi, V/A/Faza/Gs	230/12/1/50-60
Sarflanadigan quvvati, kVt	2,2
Sistemani tozalash	Solenoid toza suvni yoki reserkulyasiya sistemasini boshqaradi
Zapusk va boshqaruv	Sensorli boshqaruv pulti
Qayta to'ldirilish	Avtomatik
Darajani boshqaruv	Avtomatik
Og'irligi, kg	125/150

Qo'shimcha ma'lumotlar olish

1. Ochiltirish uchun sovutish qurilmasi;
2. Suvni reserkulyasiya;
3. Ochiltirish va yuvish seksiyalaridagi qo'shimcha shetkalar;
4. Turli xil filtr.

DH 47II - SNP (DongHang, Xitoy)

Uskuna tipi va mo'ljallanishi:

Tezkor ishlarni bajarish uchun mo'ljallangan bir rangli kichik bichimli ofset mashinasi, ikkinchi rangni bosish uchun satellit seksiyaga hamda numeratsiya va perforatsiya seksiyasiga ega

DH47II-SNP ofset mashinasi kichik va o'rta bosmaxonalarda bir rangli va ko'p rangli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan. Kuchaytirilgan bo'yovchi uskuna va varaqlarni tekislash qurilmalari tufayli, DH47II-SNP ofset

mashinasi bukletlar, taqvimlar, axborot varaqlari, gazetalar singari reklama va axborot tusidagi to'la rangli mahsulotlarni bosish imkoniyatiga ega.

S – satellit seksiya, u qo'shimcha bo'yash tizimidan va ikkinchi rangni bosuvchi qolip validan tashkil topgan. Qolipdagi tasvir asosiy bo'yoq kabi xuddi o'sha ofset valiga o'tkazilgani sababli, ikki rang bir-birining ustidan bosilishi mumkin emas. Shu tariqa, bir progonda ikki rangli axborot varaqlari, blank, gazeta, prays-list va boshqa mahsulotlarni bosish mumkin.

NP – numeratsiya va perforatsiya seksiyasi - DH47II-SNP mashinalarining yana bir ustunligi hisoblanadi. Blanklarni numeratsiyalash va yirtma buyumlarni perforatsiyalash qo'shimcha uskuna o'rnatish zaruriyatidan xalos etadi.

Ofset usulida mahsulot ishlab chiqarishni endigina rejalagan va bu texnologiyani oddiy yalpi, ammo bozorda xaridorgir mahsulot chiqarish uchun sinab ko'rishni istaganlar uchun, DH47II-SNP ofset mashinasi – maqbul variant. Bu mashina ham aks etadigan bosma sifati, sozlashda oddiyligi, xizmat ko'rsatishda talabchan emasligi, ham boshlang'ich qo'yilmalarning minimal qiymati bo'yicha hammani qanoatlantiradi.

DongHang konsernining bir qator texnologik va konstruktiv ishlanmalari tufayli, to'la rangli bosmaning yaxshi sifati ta'minlanadi. Ularning asosiysi – bo'yovchi valiklarning oshirilgan soni, uzatish stolida varaqni yonlama tekislash tizimi, chaplanishga qarshi kukun uzatish tizimi, ofset qolipini privodka qilish tizimi. Sifatni kafolatlaydigan muhim omil – konstruksiyaning oddiyligi va sozlanishlarning qulayligidir, chunki pirovard-natijada, faqat qulay mashinada murakkab ko'p rangli ishlarni bajarish mumkin.



Texnik xususiyatlar	
Elektr manbai, V/Gs	220V/50Gs, 1 faza
Kengligi, mm	1800
Balandligi, mm	950

Uzunligi, mm	1300
Vazni, kg	800
Bosmaning maks. yuzasi, mm	454x345
Qog'ozning maks. o'lchami, mm	470x365
Bosma qolip o'lchami, mm	470x380
Ofset polotnosi o'lchami, mm	470x448
Qog'oz zichligi, g/m ²	28-255
Qog'oz uzatish qurilmasi	Vakuumli so'rg'ichlar, keng tomonlama
Ho'llash tizimi	Molleton
Bo'yash valiklari soni	14(3 ta surtuvchi)
Ho'llovchi valiklar soni	5(2 ta surtuvchi)
Satellit seksiyasidagi ho'llovchi valiklar soni	4 (1 ta surtuvchi)
Qog'oz tekislovchi qurilma	Tortuvchi, rolik tipida
Bosma tezligi, varaq/soat	2000-8000
YUritma quvvati, kV	1,1
Kompressor yuritmasining quvvati, kV	0,55

Xususiyatlari:

- ☐ varaq privodkasining yuqori aniqligi,
- ☐ ranglarni aniq mos tushirish mexanizmlari,
- ☐ 14 valdan iborat kuchaytirilgan bo'yash guruhi (uchta surtuvchi val), bu esa mashinaning ko'p rangli ishlarni aks ettirish bo'yicha imkoniyatlarini sezilarli oshiradi,
- ☐ bosma seksiya oldida varaqni tekislovchi ilg'or stol,
- ☐ ofset qolipni plankali mahkamlash,
- ☐ kuchaytirilgan stanina (vazni 800kg), bu bosma barqarorligida ijobiy aks etadi.

Ustunliklari:

- varaqlarni keng tomonlama bosma seksiyasiga uzatish va tortuvchi varaqni tekislash mexanizmidan foydalanish, bosiladigan material qalinligidan qat'i nazar, ko'p rangli bosmada privodkaning yuqori sifatini ta'minlaydi, yonlama tekislashni "qo'pol" va "aniq" privodka qilish mexanizmlarining mavjudligi esa qayta sozlashni tezlashtiradi.

- silindrlari bir-biriga 90 daraja burchak ostida joylashgan bosma uskunasining uch siindrli konstruksiyasi, kuchaytirilgan stanina minimal vibratsiya hosil qiladi, bu esa rastr nuqtasini yuqori sifatli aks ettirishni kafolatlaydi

- 14 valikdan (3 ta surtuvchi) iborat bo'yovchi uskuna murakkab dizaynlarni, shu jumladan, plashkalar, ko'p rangli va hatto to'la rangli bosmani aks ettirishni ta'minlaydi

- samonakladni va bosma uskunasini asinxron ("varaq orqali") ishlashga o'tkazish uchun moslama, ayniqsa to'q rangli bo'yoq qatlami bo'lgan nusxa olish uchun qo'llanadi

- universal pnevmatik samonaklad, u mashina ishlashining barcha tezlik diapazonlarida turli sort va o'lchamli qog'ozlarni (shu jumladan, konvertlar va pochta kartochkalarini) barqaror uzatishni ta'minlaydi

- mikrometrik yonlama, o'q bo'ylab va diagonal privodka (qolip qiyshayishi) esa, ko'p rangli bosmada yuqori aniqlikdagi sovmeyenieneni ta'minlaydi

- qisqichlar konstruksiyasi bosma qoliplarni tez almashtirishga imkon beradi

- siquv ishga tushirilganda bo'yoqning qolipga avtosurtilishi
- varaq uzatilmaganda siquvning avtomatik o'chishi
- mashinaning ishlash tezligini pog'onasiz rostdash
- qog'ozning samonakladida va qabul qilish-chiqarish qurilmasida g'ijimlanishi va tiqilishi nazorati

- muhandislik psixologiyasi nuqtai nazaridan mashinaning puxta o'ylangan dizayni, qulay rostdagichlar tizimi, xavfsizlik va nazorat tizimi, xizmat ko'rsatish oddiyligi ishni engillashtiradi va bosuvchining mehnat sarflarini kamaytiradi

Qog'oz uzatish: DH47II-SNP ofset mashinasi varaq keng tomonda joylashadigan varaqma-varaq universal samonaklad bilan jihozlangan. Tortiluvchi tipdagi mikroprivodkalari bo'lgan yonlama tekislash qurilmasi va varaq uzatishni rostdash qurilmasi yuqori sovmeyenieneni ta'minlaydi. Shuningdek, qolip silindrida ofset qolipni o'ta aniq pozitsiyalantirish qurilmasi tufayli, bosuvchi bir tomonlama va ikki tomonlama bosma hamda ko'p rangli mahsulot bosmasi vaqtida sovmeyenieneni nazorat qilishi mumkin.

DH47II-SNP ofset mashinasining muhim farqlovchi jihatlaridan biri – varaq uzatilganda xatolar nazorati mavjudligidir. Qo'sh varaqlar datchiklari tufayli, mashina qo'sh varaq o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Uzatish stoli ikki tipdagi datchiklar bilan jihozlangan: zich qog'ozlar bilan ishlaganda qo'sh varaq uzatish nazorati uchun mexanik datchiklar hamda yupqa qog'ozlar va varaq uzatilmasligi nazorati uchun ikkita optik datchiklar. Bosma silindr tutqichlari oldida o'rnatilgan optik

datchiklar ham varaq qiyshayishini aniqlash uchun ishlaydi yoki kichik bichimlar bosilgan vaqtda alohida-alohida o‘chirib qo‘yilishi mumkin.

Qo‘sh varaqni aniqlagach, mashina varaqni tutqichga avtomatik tarzda tashlab yuboradi, bunda mashina to‘xtamaydi. Siquv ham avtomatik o‘chiriladi. Bu brakni kamaytirishga imkon beradi. To‘q ranglarni bosish uchun mashinada samonakladni “varaq orqali” ish rejimiga o‘tkazish ko‘zda tutilgan. Shu tufayli ofset polotnosiga bo‘yoq ikki marta surtiladi, varaqqa esa bir marta. Shu tariqa, nusxa yanada yorqin va rangdor bo‘ladi.

Oldindan o‘rnatiladigan nusxalar hisoblagichi: Turli adadlar bilan ishlash chog‘ida bosilgan mahsulot hisoblagichiga ega bo‘lishi juda muhim. Mazkur funksiya operatorga mahsulotni bosish chog‘ida bosilgan varaqlarni hisoblashga emas, balki bosma sifatiga e‘tibor qaratishiga imkon beradi. Mashina dasturlangan miqdorni bosib bo‘lgach, mazkur funksiya varaqlar uzatishni o‘chiradi va mashina to‘xtaydi.

Bo‘yoq uzatish va ho‘llashning alohida tizimlari: Molleton ho‘llash tizimi bo‘yoq va suv uzatishni alohida boshqarishni ko‘zda tutadi. Mazkur ajratish ham bo‘yoq, ham ho‘llovchi eritma miqdorini individual sozlash va nazorat qilishga imkon beradi, bu esa turli mahsulotlarni bosish chog‘ida ayniqsa muhim.

Zamonaviy bo‘yoq uzatish tizimi: DH47II-SNP ofset mashinasining kuchaytirilgan bo‘yash guruhi tufayli, plashkalarining sifatli bosmasi va kichik adadli to‘la rangli mahsulotni bosish imkoniyati tug‘ildi. Bu guruh 14 ta bo‘yovchi valiklardan tashkil topgan bo‘lib, ularning 3 tasi yoyish valiklaridir. Qolip plastinasida bo‘yoqning bir tekis taqsimlanishi turli diametrli 3 ta surtuvchi valiklar yordamida bajariladi. Kichik bichimli mashinalarda bo‘yash tizimining bunday takomillashuvi bo‘yovchi uskunaning akkumulyasiya qobiliyatini oshirib, yo‘l-yo‘l izlar tushishini kamaytiradi. Bu esa mashinaning plashkalarni, o‘girma bosmalarni va boshqa yuqori intensiv bo‘yoqli syujetlarni bosish bo‘yicha imkoniyatlarini oshiradi. Bo‘yoq uzatishni zonal rostlash (bo‘yoq profili priladkasi) esa, kipseykaning vint-shiberlari hisobiga bosuvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Chaplanishga qarshi kukun uzatish tizimi: Ikki tomonlama va ko‘p rangli bosmada ayniqsa muhim hisoblangan bo‘yoq chaplanishi va varaqning orqa tomoni ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun, DH47II-SNP ofset mashinasida chaplanishga qarshi kukun uzatish tizimi ko‘zda tutilgan. Kukun qatlami bo‘yoqning tez qurishiga yordamlashadi, chunki nusxadagi bo‘yoqqa havoning erkin tegishini ta‘minlaydi va shu orqali taxlamda nusxalarning chaplanishi va yopishib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi. Kukun miqdorini rostlash orqali, bosma chog‘ida changlatish jarayoni kechadi. Shu tariqa, har bir nusxa ishonchli himoya qilinadi.

